

JAYNIYLIK. SIKXIYLIK TA'LIMOTI VA MANBALARI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Bekmurodov Og'abek Ahror o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Otamurodov Doniyor Odilboy o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqola Jayniylik (yoki Jaynizm) ta'limotining asosiy tamoyillari va ularning manbalari haqida umumiy ma'lumot beradi. Jayniylik, Hindistonning qadimiy diniy va falsafiy tizimlaridan biri bo'lib, uning asosiy ta'limotlari ahimsa (zararsizlanish) va ruhiy poklikni saqlashga yo'naltirilgan. Maqolada Jayniylikning o'ziga xos xususiyatlari, ta'limotining tarixi va rivojlanishi, shuningdek, uning diniy tahlil qilinadi. Ta'limotning ahamiyati, uning jamiyat va ekologiyaga ta'siri, shuningdek, hozirgi zamon o'zgarishlari bilan bog'liq yondashuvlar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Jayniylik, Ahimsa, Jainizm, Mahavira, Jain Agamalar, diniy ta'limot, Hind diniy falsafasi, ruhiy poklik, ekologiya, tarix.

Jaynizm — 1) Hindistonda tarqalgan dinlardan biri (qariyb 3 mln. kishi e'tiqod qiladi). Miloddan avvalgi VI asrda paydo bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, jaynizm asrlar o'sha 24 ustoz-payg'ambar orqali yetib kelgan. Bularning eng so'nggisi Jinna (ya'ni g'olib, dinning nomi shundan) va Maxavira taxallusini olgan Vardhamana bo'lib, shu din asoschisi hisoblanadi. Jaynizm qadimgi hind jamiyatidagi qarbiylar (kshatriy) bilan ruhoniylar — brahmanlar o'rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi oqibatida vujudga kelgan. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, jaynizm buddizmning bir mazhabidir. Jaynizm buddizm kabi brahmanizmning murakkab rasmlariga va tashqi shakliga qarshi chiqsi. Vedalarni muqaddasligini, qurbonliklar qilishni, ruhoniylar va xudolarning inson taqdiriga hal qiluvchi ta'sirini inkor etdi. Jaynlar o'z jamoasiga kirish uchun barcha varna (kasta)dagi erkak va ayollarga yo'l ochdi. Jaynizm da markaziy

o‘rinni jon haqidagi ta‘limot egallaydi. [1]. Bunga ko‘ra, inson joni barcha qilmishlari uchun javobgar, chunki bu qilmishlar karma konuni asosida ro‘y beradi, karma qonuni tanni jon bilan bog‘laydi, insonni yerdagi ishlarga zanjirband etadi va uning keyingi qayta tug‘ilishlarini belgilab beradi. Kishilar „o‘z jonini o‘zi xalos qilishi“, „qayta tug‘ilishlardan ozod bulishi“ mumkin. Bunga erishish uchun Jinnaga e‘tiqod qilish, Jinna ta‘limotiga ishonish, Jinna belgilagan axloq, me‘yorlariga rioya qilishi kerak. Jaynizm da axloqiy kamolatga yetishishning va karma konunidan qutulishning birdanbir yo‘li zohidlik hisoblanadi. Jaynlar zohid-rohiblar va fuqarolar (savdo-sudxurlik bilan shug‘ullanuvchilar)ga bulinadi. Jaynizm tarafdorlari hozirgi kunda asosan bankdorlar, sudxo‘rlar, sarroflar va zargarlardan iborat. Ular jondorlar bilan savdo qiladilar, boshqa tijorat ishlari bilan ham shug‘ullanadilar; 2) falsafiy ta‘limotlardan biri. Miloddan avvalgi II-I asrlarda jaynizm dini asosida shakllangan. Jaynizm falsafasining asosiy manbai „Jayna sutra“ („Jayna aforizmlari“) hisoblanadi. Jaynizm falsafasiga tattvalar— mohiyatlar haqidagi ta‘limot asos qilib olingan. Ikki asosiy tattva bo‘lib, biri— mohiyati ong bo‘lgan ruh (jiva), ikkinchisi— ruh bo‘lmagan hamma narsa (ajiva). Ruh bulmagan narsa (materiya) sezish, eshitish, hid, rang va ta‘m sifatlariga egadir. U yaratilmagan, ibtidosi va intihosi yuq, muayyan holatga ega bo‘lishi va o‘zgarishi mumkin. Modda dag‘al narsa bo‘lib, inson a‘zolari tomonidan his etiladigan yoki karmaga o‘xshab nozik bulishi mumkin. Moddaning zarrasi— atom, u makonning bir nuqtasinigina ishg‘ol etadi, og‘irlikka ega, katta tezlik bilan harakat qila oladi. Jaynizm. falsafasida ikki zamon xususiyati mavjud: ruhning ayni holatda mujassamlashgan muddati (yoki hayot vaqti) va ruhning shu berilgan holatda mujassamlashgan muddati (yoki hayot miqdori, boshqa holatga o‘tish uchun ayni shunday hayotda yashashi zarurligi). Maye, inson bir necha o‘n yillar yashaydi, ammo uning yuqoriroq holatga o‘tishi bir necha hayotiy muddatni taqozo etadi. [2]

Jaynizmning axloqiy ta‘limoti yakka shaxening o‘zigagina qaratilgan. Inson faqat o‘zini ozod qilishi mumkin; boshqa odamga yordam berish mutlaqo bo‘lmagan va iloji yo‘q narsa. Jaynizm falsafiy tizimi hozirgi vaqtgacha

deyarli ilk ko‘rinishida saqlanib qolgan. Jaynizmda ma‘naviy ideal bu donishmand avliyo hisoblanadi. Ozodlikka erishgan jon, boshqalarga namuna, mayoq vazifasini o‘tashi kerak. Bu idealni har bir kishi amalga oshirishi mumkin. Uning xatto qaysi varnaga taaluqli bo‘lishidan qat‘iy nazar u butunlay individning xukmida, chunki u shaxsiy harakat, shaxsiy barkamolligi, shaxsiy ma‘naviy jasurligi orqali amalga oshadi. Shuning uchun materiyadan xalos bilgan jon g‘olib (jinna) va qahramon (vira) hisoblanadi. Uning qalbi cheksiz bilimga, ishochga kuch-qudratga va huzur halovatga ega bo‘ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, Jaynizm nafaqat din balki, chuqur axloqiy diniy falsafiy ta‘limot hamdir. Jaynizmdagi asosiy g‘oyalardan biri bu jonga ozor bermaslikdir. Bu yerda Jaynizm va buddizm bilan bo‘g‘liqligini ha ko‘rishimiz mumkin. Tirik jonga ozor berish bu barcha dinlarda axloqiy ta‘limotlarda qoralangandir. Jaynizmdagi ahimsa g‘oyasi Hindiston otasti Mahatma Gandi dunyoqarashi katta ta‘sir ko‘rsatganini va Hindiston milliy ozodlik harakatida yetakchi g‘oya sifatida bo‘lganligini tadqiqotlar orqali bilishimiz mumkin. Bu esa Jaynizm falsafiy ta‘limotini o‘rganishni muhim ahamiyatini oshiradi.

Sikhizm Hindistondagi monoteistik din; hinduiylikning diniy islohotchilik harakatining g‘oyaviy shakllaridan biri. XVI asr boshlarida Panjobda paydo bo‘lgan. Sikhizm asoschisi—Nanak (1469—1539). Ilk Sikhizm shaharda yashovchi savdogar-hunarmandlar doiralari mafkurasini ifodalagan. Sikhizm barcha odamlarni xudo oldida teng hisoblaydi, tarkidunyochilik (asketizm), monaxlikni qoralaydi, ma‘naviy ustoz—guruga so‘zsiz tobelikni targ‘ib qiladi. XVIII asr boshida zamindorlarga qarshi harakatning mafkurasini bo‘lgan, biroq XVIII asr 2-yarmiga kelib sof diniy oqimga aylandi. Hozirgi vaqtda sikhlar o‘rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi bois ularning ichida turli oqimlar va siyosiy partiyalar vujudga kelgan. Sikhizmning diniy markazi Amritsar shahri hisoblanadi.[3]

Jayniylik va Sikxiylik Hindistonning qadimiy diniy tizimlaridan bo‘lib, har ikkisi ham ahimsa (zararsizlanish) va ruhiy poklikni ta‘limotining markaziga

qo'yadi. Jayniylik, o'zining asosiy tamoyillari bo'lib, hayotning barcha mavjudotlari bilan uyg'unlikda yashashni va tabiiy muvozanatni saqlashni targ'ib etadi. Sikxiylik esa, bir Xudo tasavvuriga asoslanib, adolat, tenglik va xushmuomalalikni muhim tamoyillar sifatida e'lon qiladi. Har ikkala ta'limot ham insonning ruhiy taraqqiyoti, axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi tinchlikni ta'minlashga qaratilgan. Ularning manbalari, o'ziga xos diniy kitoblar va ustozlarning ta'limotlari, bugungi kunda nafaqat Hindiston, balki butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan va dolzarbligini yo'qotmagan qadriyatlarni ifodalaydi.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аҳмедова М., Йўлдошев С., Шоматов О. Ҳинд Фалсафаси.-Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. 19 бет.
2. Гусева Н. Р. Джайнизм. М., 1968. С 67.
3. V.A.Smith, The Early History of India, 3rd editon,Oxford,1914, page 347
5. 4.Jinavijayaji, Kuvalayalama, Jaina Sahitya Samsodhaka, III., pp 167-168, Ahmeabad, 1922